Meyliyev Xusin (UrDPI professori)

PAHLAVON MAHMUDNING HAYOTI VA FALSAFIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada XIII–XIV asrlarda Xorazm diyorida yashab o'tgan, buyuk ruboiyshunos, kuragi yerga tegmagan kurashchi Pahlavon Mahmudning ilmiy ijodi, falsafiy dunyoqarashlari, kurashchi sifatida olib borgan faoliyati va tarixiy meroslari ochib berilgan. Shuningdek, Paxlavon Maxmudning g'oyaviy falsafalarining o'zida aks ettirgan ruboiylaridan namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Pahlavon Mahmud, ruboiyshunos, kurash, hunarmandlik, ruboiy, mardlik, olijanoblik, pahlavonlik.*

Мейлиев Хусин (профессор УрГПИ)

ЖИЗНЬ И ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПАХЛАВАНА МАХМУДА

Аннотация. *В статье раскрываются научные работы, философские мировоззрения, деятельность как борца и историческое наследие Пахлавана Махмуда, великого знатока рубаи и выдающегося борца, жившего на земле Хорезма в XIII–XIV веках. Также приводятся примеры рубаи Пахлавана Махмуда, отражающие его идейные философии.*

Ключевые слова: *Пахлаван Махмуд, знаток рубаи, борьба, мастерство, рубаи, храбрость, благородство, борьба.*

Meyliev Khusin (Professor of UrSPI)

THE LIFE AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF PAHLAVON MAHMUD

Annotation. *The article reveals the scientific works, philosophical worldviews, activities as a wrestler and the historical heritage of Pakhlavan Mahmud, a great expert in rubai and an outstanding wrestler who lived in the land of Khorezm in the 13th–14th centuries. It also provides examples of rubai by Pakhlavan Mahmud, reflecting his ideological philosophies.*

Keywords: *Pakhlavan Mahmud, expert in rubai, wrestling, skill, rubai, courage, nobility, wrestling.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitda milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, o'zbek faylasuflari va xalq qahramonlarining hayoti hamda falsafiy qarashlarini ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Buyuk faylasuf, ruboiyshunos, hunarmand va kuragi yerga tegmagan polvon Pahlavon Mahmud shaxsi ana shunday noyob tarixiy-falsafiy meros sohiblaridan biridir. U nafaqat mashhur pahlavon va shoir, balki tasavvufiy tafakkur egasi, axloqiy tarbiya targ'ibotchisi sifatida ham e'tirof etiladi.

Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodi xalqimizning o'rta asrlardagi hayotiy falsafasini yaqqol namoyon qiladi. Bugungi kunda bu buyuk shaxsning ilmiy merosini va falsafiy qarashlarini chuqur o'rganish hamda uni boy merosini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Pahlavon Maxmudning adabiy merosi va tarixi haqida ko'plab faylasuf olimlar tomonidan ko'plab asarlar yozilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat" va "Pahlovoni Muhammad" asari, Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asari, Muhammad Rizo Ogahiynig "Firdavs ul-iqbol" (Xiva xonligi tarixi) asari, Xorazm tarixchilarining (XV–XVIII asrlar) asarlari, Said Nafisiyning "Sarjashmayi tasavvuf dar Eron" kitobi, Abdulhusayn Zarrinkubning "Jo'stujo'" kitobi, Sayyid Ziyovuddin Sajjodiyning "Muqaddimayi bar mabonii irfon va tasavvuf" kitobida, Abdurafe Haqiqatning "Tarixi irfon va orifoni eroniy az Boyazid Bastomiy to Nuralishoh Gunabodiy" kitobi, Muxammodqozim Yusufpurning "Naqdi So'fiy" asari, Mexron Afshoriyning "Pahlavonlik va polvonlar tarixi" kitobi, Aliqulixon Dog'istoniyning "Riyoz ush-shuaro" asari va boshqa ko'plab xorijiy allamalarnig asarlarida Pahlavo Mahmudning hayot yo'li, falsafiy qarashlari bayon qilinadi.(1) O'zbekistonlik ilm fan ijodkorlari To'xtasin Jalilov, Yoqubjon Is'hoqov, Natan Mallayev, Hamidjon Homidiy, Matnazar Abdulhakimov, Komiljon Xudoyberganov, Jasurbek Mahmudov va boshqa olimlar tomonidan ham Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodi, uning bebaho falsafiy qarashlari keng o'rganilgan hamda uning ruboiylari hamda asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Pahlavon Mahmudning hayot va ijod yo'lini o'rganish, u haqda yozilgan asarlar va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali uning kurash sport turining insonlaring ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqidagi falsafiy qarashlarini ochib berish, uning mardligi va olijanobligi bilan bog'liq eng mashhur voqealarni va polvonlik haqidagi hayotiy falsafasini yoshlarga tushuntirib berish, uning yuksak tafakkur sohibi bo'lganligini, faylasuf shoir ekanligini, o'zida ham qubriyaviylik, ham juvonmardlik, ham hilvatiylik, ham malomatiylik tariqatlarini mujassamlashtirgan keng fe'lli so'fiy shoir va polvonlik sifatlarini ochib beriladi.

Tadqiqot uslublari. Ilmiy maqolani yozishda adabiyotlar taxlili va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va boshqa tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida Pahlavon Mahmud ning hayot yo'li, falsafiy qarashlari, pahlavonlik jasoratlari, u haqida yozilgan asarlar va tarixiy ma'lumotlar, yozgan ruboiylaridan namulalar va ularning mazmun mohiyatlari keg o'rganildi.

Jamiyatda kurash sport turning mazmu mohiyati va ahamiyati insonlarning jismoniy, ma'naviy va ruxiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Kurash insondagi axloqiy poklik, ruhiy kamolot, jismoniy chiniqish va ijtimoiy adolat g'oyalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Allomalarning fikricha kurashchilarning xususiyatlari faqatgina bilak kuchiga ega bo'lish hamda kurash usullarini bilishdan iborat emas, balki ma'rifatga ega bo'lish, saharxezlik (erta turish), ko'ngli poklik bo'lish ham kurashchilik va pahlavonlikninng asosiy xususiyatlaridan hisoblangan. Shu bilan birga, yuksak odob axloq, samimiylik, kamtarlik va kechirimlilik kurashchilar orasida keng tarqalgan hislatlardan hisoblanadi.

O'rta asrlarda ulug' o'zbek ajdodlari ilm fan sohasida butun dunyoni larzaga keltirgan. Abu Ali ibn Sino tibbiyot sohasida, Al-Xorazmiy matematika sohasida, Abu Rayhon Beruniy astronomiya sohasida, Alisher Navoiy adabiyot sohasida olamshumul ishlarni amalga oshirib, insoniyat svilisatsiyasiga ulkan hissa qo'shdilar. Ular orasida buyuk shoir va pahlavon, zabardast kurashchi Pahlavon Mahmud ham muhim o'rin egallaydi.

Pahlavon Mahmud Xorazm zaminida yetishib chiqqan buyuk mutafakkir, shoir, pahlavon va tasavvuf namoyandasi bo'lib, uning tarbiyaviy qarashlari axloqiy poklik, ruhiy kamolot, jismoniy chiniqish va ijtimoiy adolat g'oyalari bilan uyg'unlashgan. Uning inson komilligi g'oyasi, axloqiy tarbiya va odob, jismoniy va ruhiy uyg'unlik, mehnat va hunar tarbiyasi, kamtarlik va tenglik g'oyalari insonlarni ma'naviy-ijtimoiy hayotida mihim o'rin egallaydi.

Pahlavon Mahmud o'zi polvonlik sifatlari va xususiyatlari haqida shunday degan: *"Polvonlik faqatgina insonlarni yiqitishdan iborat emas, balki polvon kishi, birinchi navbatda, mard, oliyjanob va kuchsizlarga yordam beradigan bo'lishi va boshqalarning ko'nglining og'rishiga sabab bo'lmasligi lozim. Kuchli kishi o'z bilagidagi kuchga shukr qilishni istasa, kuchsiz kishilarning qo'lidan tutnog'i lozim".*

Aliqulixon Dog'istoniy o'zining "Riyoz ush-shuaro" asarida Pahlavon Mahmud haqida shunday yozadi: "Pahlavon ilm koni, oliy maqom maydonlarining mardi maydoni, valiylik maydonining shunqori, jasorat maydonidagi kurashchi pahlavonlar sardori bo'lib, keksa falak u osmonga aylantirib otgan olam, bu ko'hna dunyo esa u yuz tuban qilib yerga yiqitgan jahondir. U o'z padari buzrukvorining izidan borib, pahlavonlik kiyimida bu jahonni yangiladi, ozodlik libosida bu olamni qul etdi, kurashchilik libosida qo'lidan kelganicha kurashchilar sinfini tarbiyaladi va rivojlantirdi".

"Arofat ul-oshiqin" muallifi esa uni shunday ta'riflaydi: "Bellashuv dengizining bir dono gavhari, Xudo qudratini aks ettiruvchi ko'zgu, shariat va tariqat maydoni pahlavoni, ma'rifat va haqiqat maydonining Rustami, jasorat va mardlik maydoni devkelbati Pahlavon Mahmud Puryoyvaliydir.

Haqning vayronasida vujudi ganj va tug'ilgan makoni Urganch bo'lmish. Nomlari olamga yoyilgan ulug' avliyolar mashhur so'fiylardan biri.

So'z vodiysida ham mehnat chekib, olti oy muddat ichida valiylik bulog'i va yo'lchi yulduz bo'lmish "Kanz ul-haqoyiq"ni yaratmish. She'r yozishda hech kim bunchalik martabaga erisha olish qurratiga ega bo'lmagan" [1].

Pahlavon Mahmudning mardligi va oliyjanobligi bilan bog'liq eng mashhur voqea uning Hindiston mamlakatiga borganda o'zidan kuchsizroq polvonga ataylab yiqilib berishi bilan bog'liqdir, Manbalarda yozilishicha, Pahlavon Mahmud kurash bellashuvidan oldin nomoz o'qish uchun masjidga boradi va masjidda o'zi bilan bellashadigan kurashchini onasining o'g'lini g'alabasini Xudodan so'rab qilayotgan zor-u nolasi va yig'isi Pahlavon Mahmudni o'ziga jalb qiladi va kampirdan buni sababini so'raydi, kampir unga voqeani aytib beradi. Pahlavon Mahmud onaga tasalli beradi: "Men ham Xudoning dargohidan o'g'lingga g'alaba tilayman. Umid qilamanki, sen va o'g'ling–har ikkalangiz murodlaringizga yetgaysizlar". Natijada Pahlavon Mahmud raqibidan qanchalik kuchli va mohir bo'lmasin, kurashchining onasiga bergan so'zining ustidan chiqib, o'zini yerga tashlab atayin yiqilib beradi. O'rnidan turgach esa qilgan ishidan juda xursand bo'ladi. Chunki u dunyoga kelgandan beri birinchi marta jismoniy emas, balki ruhiy kuch-quvvati uning vujudiga hokimlik qilayotgan edi. Pahlavon Mahmud bo'lib o'tgan voqea so'ng shogirdlariga shunday deydi:

Birovlarning ko'nglini olish katta haj bilan tengdir, Minglab kabadan bir ko'ngil yaxshroqdir.

Buyuk alloma Alisher Navoiy o'zinig "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Pahlavon Mahmudning Hindostonga borib kurashish voqeasini shunday tasvirlagan: "Kurashdan so'ng Hindiston podshohi uni o'zi

oldiga chorlab, u bilan suhbatlashdi. Oradan bir necha kun o‘tgandan so‘ng, Hindiston podshohi Pahlovon Mahmudni o‘zi bilan birga ovga olib boradi. Ov chog‘ida podshohning oti hurkib ketib, uni olib qochdi va bir joyga yetganida, Mahmud o‘z otidan tushib, podshoh bilan otini birgalikda ko‘tarib oladi va uni ohistagina yerga qo‘yadi. Bundan hayratga tushgan podshoh “Shunchalik katta kuchga ega bo‘lgan bilak kurash maydonida raqiblarni qanday qilib yerga urib parcha-parcha qilib tashlamadi ekan” degan savolni beradi. Pahlavon Mahmud bunga javoban quyidagi ruboiyni o‘qiydi:

O‘z nafsingga amir bo‘lsang marddirsan, Boshqalarga suyanmasang marddirsan, Yiqilganni tepmoq mardlik emasdir, Yiqilganni turg‘issang gar marddirsan [1].

Pahlavon Mahmud ulug‘lik darajasiga yetishning birinchi sharti elning xizmatini qilish, uning hokiposi bo‘lish lozimligini quyidagi to‘rtligida bayon qilgan:

Ulug‘lik istasang, bo‘l el gadosi, O‘zingni unut-u bo‘l el oshnosi, El toj kabi boshiga ko‘tarsin desang, El qo‘lin tutginu bo‘l hokiposi [2].

Pahlavon Mahmud polvonlik qismati haqida yozar ekan, bu oson soha emasligi, pahlavon elga nafi tegadigan, yurtiga xizmat qildigan kishi bo‘lishi lozimligi, kurash maydoni oddiy maydon emasligi va u halollik maydoni ekanligini o‘z falsafiy qarashlarida ko‘rsatib o‘tadi:

Pahlavon qismatim bil, bu oson emas, Kurash maydoni ko‘r, kar maydon emas, Pahlavon ul, tegsa o‘zgaga naf‘i, Tegmasa naf‘i, ul pahlavon emas [2].

Nomardlik, pastkashlik va nodonlikni qoralab yozgan quyidagi ruboiysi ham barchaga ibrat bo‘lgusidir:

Uch yuz Qo‘hi Qofni kelida tuymoq, Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq, Yoinki bir asr zindonda yotmoq, Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq [2].

Pahlavon Mahmud o‘z ruboiylarida odob-axloq, uning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ta’sirli va chiroyli o‘xshatishlar orqali ko‘rsatib beradi. Shu jihatdan olib qaraganda, shoir ijodi namunalarini insonparvarlikga yo‘g‘rilgan g‘oyalar majmui deb atash mumkin. Do‘stlik va ahdiga vafo haqida so‘z borar ekan, Pahlavon Mahmud do‘stlikga hamisha sodiq qolishni va ahdga vafo qilishni uqtiradi:

Buzma sira tuzgach ahd ila paymonni, Do‘st sufrasidan yo‘qsa ushatma nonni, Bu Mahmudi Piryorvaliy so‘zini eshit: Sindirma tuzini tugatib tuzdonni [2].

Pahlavon Mahmud polvonlarning hamisha elga, yurtga, odamlarga manfaati tegishi lozimligini quyidagi falsafiy qarashlarida bayon etadi:

Pahlavon deb oni ayturlar, Odamlar ondin manfaat ko‘rsa, Ul kishikim pahlavon emasdir, Zararg‘a qo‘yub, maoshidin ayursa.

Pahlavon Mahmud agar polvon biror-bir kimsani aybini ko‘rsa, uni ko‘rmaslikga olish lozimligini quyidagi baytda izhor qiladi:

Fil bo‘l-u, chumolidek yasha xor-u haqir, Har ikki jahon mulki bilan misli faqir, Ko‘rsang-da hayotda aybini har kishining, Lozim bo‘ladi o‘zni tutish ko‘r-u basir.

Pahlavon Mahmud mardlik haqida ham ruboiylar bitib, nazdida polvonlarni mardlikga chaqiradi:

Ruhinda bo‘lay desangki serdardlarning, Mardga yukin, bu shartidir shartlarning, Mard bo‘lasan egilmayin nomardga, Xizmatiga shay yashasang mardlarning.

Oqil aqli hisga giriftor bo‘lmas, Hasad qilgan bilan tillo xor bo‘lmas. Nomard it kabidir, mard buyuk daryo, Daryo it damidan hech murdor bo‘lmas.

Xulosa. Pahlavon Mahmud tarixda real shaxs sifatida barcha pahlavonlar orasida eng ulig‘i, eng mashhuri hamda ularning avliyolaridan biridir. Uni afsonaviy pahlavonlar obrazlaridan farqlab turadigan eng yorqin jihat shuki, u mana shu yurtda, mana shu yurt xalqi bilan birga yashab, ular bilan umumiy din, mahzab, umumiy odatlar, udumlar va odob-axloqqa ega bo‘lgan. Palavon Mahmud bilak kuchi, oliyjanoblik va zuhd kabi xislatlari, pahlavonlik qonun-qoidalari va maslagiga to‘la rioya qilganligi va bu borada yuqori darajalarga erishganligi tufayli pahlavonlar nazdida Xudoning avliyosi hisoblanadi. Pahlavon Mahmudning xuddi ana shu xususiyati uning nomini abadiy qilmishdir.

Pahlavon Mahmudning asosiy falsafiy qarashlari. –inson komilligi g‘oyasi ostida halollik, vijdon, cabr, kamtarlik kabi fazilatlar yotadi. -axloqiy tarbiya va odob **yaxshilik qilish, yovuzlikdan tiyilish, nafsni jilovlash** muhim o‘rin tutadi. Tarbiya so‘z va amal birligi, va’daga sadoqat, rostgo‘ylik tamoyillariga tayanadi;

–jismoniy va ruhiy uyg‘unlik **jismoniy tarbiya**ni ham muhim qismidir. Kuch adolatga xizmat qilishi, jism ruh bilan uyg‘un bo‘lishi lozim, ya’ni, kuch zo‘ravonlik uchun emas, **ezgulik** uchun sarflanishi kerak;

– kurashda kuch va axloq uyg‘unligi juda muhimdir. Kuch nafsni yengishi, g‘ururdan yiroq bo‘lishi, sabrli bo‘lishi, o‘zini tuta biladigan bo‘lishi lozim. Kuch adolatdan ajralsa, zo‘ravonlikka aylanadi;

–kamtarlik pahlavonlik mezoni hisoblanadi. Pahlavonlikning eng yuksak belgisi kamtarlikdir. G‘alaba kibr keltirmasligi, mag‘lubiyat esa insonni sindirmasligi kerak;

–kurashchi nafaqat bellashuvda halol bo‘lishi, balki hayotda ham halol bo‘lishi lozim. Hiyla, yolg‘on, adolatsizlik pahlavon sha’niga ziddir;

– kuch zaiflarni himoya qilish, haqiqatni qo‘llash uchun berilgan ne’matdir. Pahlavon jamiyat oldida mas’ul shaxs ekanligini ta’kidlaydi;

– kurashchi ma’naviyati quyidagi tayanchlarga quriladi: nafs ustidan g‘alaba, kamtarlik va halollik, adolat va insonparvarlik,kuchning ezgulikka xizmat qilishi.

Pahlavon Mahmuding hayoti va ijodi, uning falsafiy qarashlari bugungi kunda butun dunyo olimlari tomonidan yanada chuqur o‘rganilib va tahlil qilinib kelinmoqda. Insoniyatning ma’naviy va ruhiy kamolotida Pahlavon Mahmudning bebaho merosi va falsafiy qarashlarini o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). J.Mahmudov. Pahlavon Mahmud: o‘zbek ma’naviyati va kurash san’atidagi o‘rni. Toshkent, “Akademhashr”, 2018.

(2). R.Sherjanov, J.Mahmudov. Pahlavon Mahmud. Berdim qalamimga so‘z (ruboiylar). Toshkent, “Akademnashr”, 2022.

(3). Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari. Toshkent, “Fan”, 1978.

(4). Aliqulixon Dog‘istoniy. “Riyoz ush-shuaro” asari. Toshkent, “Sharq”, 1980.